

ZAMONAVIY SHAROITDA QURILISH KORXONASINING INNOVATSION RIVOJLANISHINI BOSHQARISH

Utbasarov Doniyorjon Baxtiyarovich

Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti
"Biznes boshqaruvi va moliya" kafedrası assistenti

E-mail: utbasarov92@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada bugungi zamonaviy qurilish korxonalarida innovatsion rivojlanishini boshqarish, tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini yanada takomillashtirish, innovatsion boshqaruv g'oyalari va yangiliklari keng yoritilgan. Shu bilan birga mamlakatimizda faol rivojlanib borayotgan qurilish sanoatidagi innovatsion texnologiyalarni joriy qilinishi orqali faoliyatni rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni yanada yaxshilashga xizmat qiluvchi qator huquqiy asoslar, ilmiy-nazariy asoslari va faoliyatda uchrashi mumkin bo'lgan muammolar va yechimlar yoritilib, ularga taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: infratuzilma, qurilish faoliyatidagi innovatsiyalar, innovatsion salohiyat, qurilish industriyasi, strategik yo'nalish, innovatsion menejment, innovatsiya, innovatsion faoliyat, boshqaruv, iqtisodiy tizim, ilmiy va innovatsion faoliyat.

Annotation. This article examines a wide range of ideas and innovations in the field of innovative development management, further improvement of organizational and economic mechanisms, and innovation management in modern construction enterprises. At the same time, thanks to the introduction of innovative technologies in the construction industry, which are actively developing in our country, a number of legislative frameworks, scientific and theoretical foundations and problems and solutions that can be encountered in the course of activities that serve to further improve the conditions for the development of activities, proposals and interpretations have been developed for them.

Keywords: infrastructure, innovations in construction, innovation potential, construction industry, strategic direction, innovation management, innovation, innovation activity, management, economic system, scientific and innovative activity.

Аннотация. В данной статье рассматривается широкий спектр идей и нововведений в области управления инновационным развитием, дальнейшего совершенствования организационно-экономических механизмов, управления инновациями на современных строительных предприятиях. В то же время, благодаря внедрению инновационных технологий в строительную отрасль, которые активно развиваются в нашей стране, ряду законодательных рамок, научно-теоретическим основам и проблемам и решениям, с которыми можно столкнуться в процессе деятельности, которые служат дальнейшему улучшению условий для развития деятельности, предложениям и для них были разработаны интерпретации.

Ключевые слова: инфраструктура, инновации в строительной деятельности, инновационный потенциал, строительная отрасль, стратегическое направление, инновационный менеджмент, инновации, инновационная деятельность, менеджмент, экономическая система, научная и инновационная деятельность.

Kirish. Qurilish iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridan biri sifatida zamonaviy mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Bu juda ko'p ish o'rinlarini yaratadi va iqtisodiyotning turli sohalaridagi mahsulotlariga bo'lgan talabini rag'batlantiradi. Qurilish sanoati jamiyat hayoti va rivojlanishi uchun zarur bo'lgan infratuzilma bazasini shakllantirishni, moddiy bazani yaratishni ta'minlaydi. Sanoat korxonalari, transport va aloqa tizimlari, shuningdek, asosiy ekologik va ijtimoiy muammolarni hal qilishga hissa qo'shadi. Xarajatlarni kamaytirish, ish muddatlarini qisqartirish va sifatni yaxshilash istagi sanoat ishtirokchilarini ishning barcha bosqichlarida, shu jumladan tashkiliy va tadqiqot ishlari, loyihalash, qurilish-montaj ishlari, ishga tushirish va hokazolarda innovatsion yechimlarni faol qo'llashga undaydi. Qurilishda zamonaviy innovatsion texnologiyalarni joriy etish loyihalar uchun qurilish jarayonlarining sifati va samaradorligini oshirish, xarajatlar va vaqtni qisqartirish imkonini beradi. Qurilish faoliyatidagi innovatsiyalar barqaror rivojlanishga erishish vositasidir. Shunday qilib, ushbu tadqiqotning maqsadi mavjud to'siqlarni yengib o'tish va barqaror iqtisodiy rivojlanish uchun sharoit yaratishga e'tibor qaratgan holda, O'zbekiston qurilish sanoatiga innovatsion texnologiyalarni samarali joriy etish va ularni boshqarish

bo'yicha yondashuvlarni tahlil qilish va ishlab chiqishdan iborat.

Jahonning rivojlangan mamlakatlarida zamonaviy qurilish korxonalarining innovatsion salohiyati rivojlanishining asosiy manbasi sifatida qaraladi va milliy boylikning tarkibiy qismi hisoblanadi. Milliy iqtisodiyotda innovatsion salohiyatni shakllantirish, qo'llash, uning mexanizmlarini joriy qilish va undan samarali foydalanish muammolari hozirgacha o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda. Zamonaviy sharoitda qurilish korxonalariga innovatsiyalarni jalb qilish va samaradorligini oshirish uchun iqtisodiy tizim sifatida qurilish materiallari sanoati korxonalarini innovatsion rivojlantirish metodologiyasini ishlab chiqmasdan va innovatsiyalarni har tomonlama baholashning uslubiy asoslarini shakllantirmay erishib bo'lmaydi.

Adabiyotlar sharhi.

"Innovatsiya" tushunchasini olim J. Shumpeter tomonidan fanga kiritilgan bo'lib, uning ta'rifiga ko'ra, bu texnologiya va boshqaruvdagi o'zgarishlardan boshqa narsa emas, chunki resurslardan foydalanishning yangi yo'nalishlari, ya'ni "innovatsion salohiyat" tushunchasi paydo bo'ladi. Korxonaning innovatsion salohiyati - bu korxonaning innovatsiyalarni yaratish va ulardan foydalanish bo'yicha faoliyatni amalga oshirish qobiliyatini aniqlaydigan xususiyatlar majmudir [1]. Shuningdek "innovatsion salohiyat" tushunchasini boyitish shuningdek unga ta'sir etuvchi omillarni iqtisodchi

olimlarning ilmiy tadqiqotlari orqali ko'rish mumkin. A.A.Trifilovanning fikricha innovatsion salohiyati unsurlari quyidagi omillarni o'z ichiga oladi:

1. Innovatsiyaga mo'ljallangan qismlar.
2. Malakali kadrlar tarkibi.
3. Moliyaviy resurslar (boyliklar).
4. Moddiy-texnik ta'minlanish.
5. Intellektual (aqliy) mulk [2].

M.Porter qarashlarida kompaniyalarning rivojlanishida innovatsion tadbirlarning o'rni, ularni qo'llash xususiyatlari, kompaniyaning barqaror rivojlantirilishiga faqat innovatsiyalarni doimiy ravishda joriy etish hamda kompaniyalarning raqobat ustunligiga erishishlarida innovatsiyaning ta'siri masalalari tadqiq etilgan.

Rus olimlaridan D.V.Filippov o'z ilmiy tadqiqotida: qurilish sanoati korxonalarini iqtisodiy faoliyati tahlili va innovatsion salohiyatiga tizimli yondashuvi, mamlakat iqtisodiyotining barcha tarmoqlari tashqi integratsiya munosabatlari mexanizmining murakkab tizimi ekanligini tushunishni nazarda tutadi.[3] Mahalliy olimlardan I.Abdurahmonov, Sh. Bobojonov, R.I. Nurimbetov, G. Shanazarovalarning mavzuga oid ko'plab ilmiy asarlari va tadqiqotlari o'rganilgan. Ularning fikriga ko'ra mamlakatning iqtisodiy rivojlanishida qurilish sanoati korxonalarining o'rni yuqori hisoblanadi. Hozirgi kunda raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish va eksport qilish bo'yicha

barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlash, shuningdek, qurilish sanoati korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashga qaratilgan tarkibiy o'zgartirishlarni yanada chuqurlashtirish hamda boshqaruvning zamonaviy kommunikatsion usullari orqali sohani innovatsion rivojlanishi yuzasidan tizimli ishlar amalga oshirilishini nazarga tutishadi.

Bizning fikrimizcha, innovatsion tadbirlar mahsulotning raqobatbardoshligini ta'minlash bo'yicha yuqorida keltirilgan barcha fikrlar bir-birini to'ldiradi, bundan tashqari, aynan qurilish mahsulotlarining raqobatbardoshligi tushunchasiga nazariy va amaliy jihatdan asoslangan ta'rifini ishlab chikish muammosi dolzarb bo'lib turibdi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqolada zamonaviy sharoitda qurilish korxonasining innovatsion rivojlanishini boshqarishning o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan tadqiqotlarni o'rganish, ta'rif va tushunchalarining shakllanishini qiyosiy solishtirish, ma'lumotlarni o'rganish va iqtisodiy jihatdan taqqoslash va tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraktsiyalash, ma'lumotlarni guruhlash, analiz va sintez usullaridan keng foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Hozirgi kunda har qanday mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti uning innovatsion salohiyatini shakllantirish

va undan samarali foydalanish xususiyatlarini baholash va boshqarish asosida aniqlanadi. Shunday ekan, innovatsion salohiyatdan samarasiz foydalanish raqobatbardosh, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotining rivojlanish jarayonini sekinlashtiradi va mamlakatning iqtisodiy o'sish sur'atlarini pasaytiradi. Iqtisodiy o'sishning yangi modeliga asoslangan davlat iqtisodiyot tarmoqlarining raqobatbardoshligini oshirishni ta'minlaydigan innovatsion rivojlanishning ustuvor yo'nalishlarni tanlashni nazarda tutadi. Mamlakatimiz iqtisodiyotining muhim tarmog'idan biri bo'lgan qurilish industriasini sifat jihatdan rivojlantirish yuzasidan keng ko'lamda chora - tadbirlar amalga oshirilmoqda. Qurilish tarmog'ini yanada takomillashtirish, arxitektura hamda qurilish organlari va muassasalarini izchil rivojlantirish mexanizmlarini shakllantirish, davlat boshqaruvi tizimining samaradorligini ta'minlash, sohaga raqamli texnologiyalarni ilg'or joriy etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 20 fevralda «Qurilish materiallari sanoatini tubdan takomillashtirish va kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4198-sonli qarori ijrosini ta'minlash, shuningdek, respublika davlat organlari va korxonalarida innovatsion faoliyat boshqaruvini zamonaviy usullarini ilg'or xalqaro standartlarga muvofiq joriy etish hamda qurilish materiallari sanoati korxonasi rahbarlari

innovatsion boshqaruvinining samarali tizimini ishlab chiqish va uni takomillashtirishga qaratilgan o'zgarishlarni amalga oshirish mexanizmlarini tashkil etishning amaliy ehtiyoji borligi bugungi kunning dolzarb muammolaridan hisoblanadi. Shunga qaramay, bugungi kunda ham innovatsion faoliyatni boshqarish samaradorligini oshirishning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlari yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Qurilish materiallari sanoati korxonalarida innovatsiyalarni samarali boshqarish muammosi iqtisodiy ierarxiyaning barcha darajalari rahbarlari uchun, mulk shakli va iqtisodiy tartibga solishning davlat tizimidan qat'i nazar, doimo dolzarb bo'lib kelgan. Qurilish materiallari sanoati korxonalari ishlab chiqarish jarayonida texnika-texnologiyalardan tashqari xodimlarning qobiliyati, malakasi va ish tajribasi bevosita ta'sir ko'rsatadi. 2020 yil 27 noyabrdagi O'zbekiston respublikasi qurilish tarmog'ini modernizatsiya qilish, jadal va innovatsion rivojlantirishning 2021 — 2025 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF - 6119 - sonli farmoni, 2018 yil 21 sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasini 2019 - 2021 yillarda innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori, 2021 yil 1 apreldagi «Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish bo'yicha davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to'g'risida»gi PF -

6198 - son Farmoni qurilish industriyasi korxonalarida mahsulot ishlab chiqarishda raqobatbardoshlik darajasini amalga oshirishda xizmat qiladi.

Qurilish korxonalari sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirish uchun asos bo'lib, davlatning iqtisodiy rivojlanishi uchun ko'plab sohalarda o'sish uchun zarur shart-sharoitlar va istiqbollarni yaratadi. Shu munosabat bilan qurilish sohasidagi innovatsiyalar asosiy sifat ko'rsatkichlari tizimiga erishishga yordam berishi kerak. Hozirgi zamonaviy sharoitda qurilish korxonasining innovatsion rivojlanishini boshqarish esa nafaqat innovatsiyalardan foydalanish, balki qurilish korxonasi uchun ajratilgan kapitaldan samarali foydalanish, harajatlarni tejash, ishchi xodimlarni malakasini oshirish va ish o'rinlariga to'g'ri yo'naltirish kabi afzalliklariga erishiladi.

Qurilish korxonasining innovatsion rivojlanishi, shu qatorda,


milliy va mintaqaviy dasturlar va loyihalar, shu jumladan innovatsion muhitda sifatni oshirish kabi natijalar amalga oshiriladi. Qurilish korxonasidagi innovatsiyalar bir nechta muhim funktsiyalarni bajaradi:

- reproduktiv funktsiya innovatsiyalarni joriy etish orqali asosiy vositalarning kengaytirilgan takror ishlab chiqarilishini ta'minlashga qaratilgan;

- investitsiya funktsiyasi, uning mohiyati innovatsion loyihalardan olingan foydani investitsiya xarajatlarini moliyalashtirishga sarflashdan iborat;

- rag'batlantirish funktsiyasi, bu innovatsiyalarni amalga oshirishdan olinadigan foyda mamlakat iqtisodiyotining samarali davom ettirishga ilhomlantirishidan iborat innovatsion jarayon.

Qurilish korxonalarida innovatsiyalarning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi xususiyatlar **1-rasmda** keltirilgan.




1-rasm. Sanoatda innovatsiyalarning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi qurilish xususiyatlari*

*Manba: ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan

Qurilishdagi innovatsiyalar yangi materiallar va mahsulotlar, zamonaviy

texnologik jarayonlar, moliyaviy vositalar va tashkiliy tuzilmalarni ishlab chiqarish va ekspluatatsiya jarayoniga integratsiyalashni o'z ichiga oladi. Qurilishda innovatsiyalarning maqsadlari **2-rasmda** keltirilgan.



2-rasm. Qurilish innovatsiyalarining maqsadlari*

*Manba: ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan

Zamonaviy sharoitda qurilish korxonasining innovatsion rivojlanishini boshqarishning barcha bosqichlari innovatsion salohiyatni shakllantirishning maqsad va vazifalarini amalga oshirish, zarur mablag' miqdorini hisoblash, investorlarni jalb qilish va moliyalashtirish manbalarini hisobga olish, zarur resurslar bilan ishlash muddatlarini aniqlash imkonini beradi. Shundan kelib chiqib quyidagi xulosa va tavsiyalarni berishimiz mumkin.

Xulosa. Bugungi kun tartibi asosida zamonaviy iqtisodiy sharoitda samarali innovatsion menejment jarayonini ochib beradigan innovatsion rivojlanishni boshqarish tamoyillari tizimlashtirildi. Ulardan innovatsion menejment tizimini shakllantirish va rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlarini tushunish yoki innovatsion menejment sohasidagi sub'ektlarning imkoniyatlarini baholash vositasi sifatida foydalanish mumkin. Shundan kelib chiqib, zamonaviy sharoitda qurilish korxonasining innovatsion

rivojlanishini boshqarish modeli uchun asos bo'lgan quyidagi xulosa va tavsiyalarni berishimiz mumkin:

- strategik yo'nalishlar bo'yicha strategik ko'rsatmalar va maqsadlarni aniqlash mintaqaning innovatsion rivojlanish sohasidagi samarali faoliyatini amalga oshirishini strategik boshqarish;

- ierarxiyaga asoslangan holda davlat tomonidan turli darajalarda amalga oshiriladigan innovatsion siyosatning turli ustuvor yo'nalishlariga rioya qilish orqali milliy, mintaqaviy, munitsipal omillarga tadbqiq qilish;

- uzluksizlik orqali jarayonni doimiy ravishda nazorat qilish, saqlash, muammoli vaziyat chog'ida yaxshiroq choralar, printsiplar, modellar va boshqalarni izlash;

- operatsion moslashuv orqali, qurilish korxonalarida innovatsion rivojlanishini boshqarishda yuzaga keladigan tashqi va ichki vaziyatlarga bir zumda moslashishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 20 fevralda «Qurilish materiallari sanoatini tubdan takomillashtirish va kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4198-sonli qarori <https://lex.uz/docs/4207834?ONDATE=20.02.2019%2000>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston respublikasi qurilish tarmog'ini modernizatsiya qilish, jadal va innovatsion rivojlantirishning 2021 — 2025 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida» gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF – 6119 - sonli farmoni
3. <https://lex.uz/docs/5130468>
4. И.С. Лукашов “Факторы формирования инновационного потенциала предприятия” Научно-технические ведомости СПбГПУ 4' 2012. Экономические науки
5. Т.Т. Jo'raev, А.А. Oripov „Milliy iqtisodiyotning innovatsion salohiyati va undan samarali foydalanish yo'llari“ “xalqaro moliya va hisob” ilmiy jurnali. №2, aprel, 2021 yil. issn: 2181-1016
6. Филиппов Дмитрий Валерьевич “Системный подход к комплексной оценке инновационной деятельности”